YOZMA MANBALARDA SANGZOR VOHASI AHOLISI TURMUSH TARZI HAQIDA

Sh.S.Achilov
JDPU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Muallif, ushbu maqolasida Jizzax, hususan Sangzor vohasi xalqlarining kundalik turmush tarzida o’ziga xos mavqeiga ega bo’lgan chorvachilikning tarixiy asoslarini tadqiq etish bugungi kunda tarix fanining dolzarb masalalardan biri hisoblanishi, O’zbekistonning boshqa tarixiy – etnografik mintaqalari kabi Sangzor vohasi ham o’ziga xos, muhim mikroetnografik mintaqa hisoblanishi, vohaning qulay geografik o’rni g’oyat xilma – xil madaniyatlar va an’analarning uyg’unlashgan holda shakllanganligini tarixiy manbalar asosida yoritishga xarakat qilgan.

Kalit so’z: Ustrushona, O’rta Sangzor, Morguzar, Nurota, Avesto, Yaksart, Qang’xa, Gerodot, Ilono’tti darasi, Xaliliya, Dizak, Pshag’or, Zomin, Yom.

O‘zbekistonning boshqa tarixiy – etnografik mintaqalari kabi Sangzor vohasi ham o’ziga xos, muhim mikroetnografik mintaqa hisoblanadi. Vohaning qulay geografik o’rni g’oyat xilma – xil madaniyatlar va an’analarning uyg’unlashgan holda shakllanishiga sabab bo’lgan.

Ustrushonaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Jizzax madaniy o’lkasi va ayniqsa, uning Sangzor daryosi havzasining tabiiy geografik jihatdan qulay sharoitga ega bo’lib, qadim va o’rta asrlarda o’ziga xos madaniyat shakllanganligi arxeolog olimlar tomonidan aniqlangan.

Chorvachilik va u bilan bog’liq marosimlar qadimdan Markaziy Osiyo aholisi hayot tarzida muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu soha an’anaviy xo’jalik yuritishning eng qadimgi ko’rinishlari va tirikchilik manbaini belgilovchi asosiy mehnat turlaridan biri bo’lgan. Chorvadorlarning turmush tarzi va ushbu mashg’ulot bilan bog’liq qarashlar, urf – odatlar etnografik materiallar asosida ma’lum darajada o’rganilgan bo’lsa – da, u bilan bog’liq qadimiy diniy tasavvurlar va e’tiqodiy qarashlar alohida tadqiqot ob’ekti sifatida hanuzgacha maxsus tadqiq etilmagan.

Voha chorvadorlari qadimgi tarixi, urf – odat va marosimlarini o’rganishdagi asosiy muammolardan biri shuki, qadimgi chorvadorlar o’zlari haqida yozma manbalar qoldirmaganlar.

Ma’lumki, Sangzor vohasi joylashgan o’rnining geografik nuqtai nazardan Turkiston tog’ining Morguzar tizmasi, Nurota tog’ining shimoliy yon bag’irlari bilan tutashib ketganligi bu hududda turkiy qabilalarning chorvachilik xo’jaligi bilan qadimdan shug’ullanishiga imkoniyat yaratgan. “Avesto” Yashtlarida chorvador turlar, danay – turlarining Yaksart saklari ekanligi, muqaddas ilox Anaxitaga bag’ishlangan qismida dastlabki Turon podsholari qarorgohlaridan Qang’xa (Qang’e) “baland va muqaddas” deb ta’riflangan siyosiy va diniy markazning Sirdaryoning o’rta oqimida bo’lganligi, chorvador xalqlardan xaoma pishiruvchi buyuk “tur”lar – sakaxaumovarkalarning Sirdaryo atrofidagi (Ustrushona) dashtliklarda yashaganligi eslatiladi.

Karim Shoniyozovning yozishicha, saklarning yirik uchta guruhidan tashqari ularning to’rtinchi guruhi “So’g’diyonadan keyin, uning narigi tomonida (Ustrushona – hozirgi Jizzax vohasi hududlarida) yashovchi saklar haqida ma’lumotlar aks etgan.

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida ham Markaziy Osiyo chorvador xalqlari urf – odatlari haqida ko’plab ma’lumotlar bor. Mil. avv. V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” asari (I, III, VII, IX jildlari) da tilga olingan sak (skif), massaget, xorasmiy, margush, sug’d, parikan kabi o’troq va ko’chmanchi xalqlar, massagetlarning xo’jaligi, turmush tarzi, urf – odat va marosimlari haqidagi ma’lumotlar qimmatlidir

Jizzax hususan Sangzor vohasining XV – XVI arlar davri tarixi bo’yicha Boburning “Boburnoma” asarida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu asarda Jizzax vohasidagi aholi maskanlari: Ilono’tti darasi, Xaliliya, Dizak, Pshag’or, Zomin, Yom, Yor – Yayloq kabi kentlar tilga olib o’tiladi.

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur 1501 – 1502 yillarda Samarqandda Shayboniyxondan mag’lubiyatga uchragan Bobur kam sonli a’yon va qo’shinlari bilan og’ir ahvolda Jizzaxga yetib keladi. ...“Kech namozi digar Ilono’ttida tushub, ot o’lturub etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindurub otlandik. Tongdan burunroq Xaliliya kentiga kelib tushtik. Xaliliyadin Dizak kelildi”, deb Jizzax shahrining muhim mavzelarini sanab o’tadi. Ma’lum muddat Jizzaxda yashab, shahar uning atrofidagi qishloqlar va xalqning hayoti to’g’risida ko’rganlarini esdaliklariga kiritib boradi. “...Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonliqqa kelduk”

“Boburnoma”dan anglashiladiki, qadimdan dehqonchilik va yaylov chorvachiligiga asoslangan Jizzax, hususan Sangzor vohasi aholisi sohibkorlik, jumladan chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda Amir Temur va temuriylar davrida ham mashhur bo’lgan. Voha shuningdek temuriylar davrida ko’p chorvani saqlaydigan hudud vazifasini o’tagan.

XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida temuriylar davlati kuchsizlanib, bunday vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon boshliq Dashti Qipchoqning chorvador qabilalari Movarounnahrning keng vohalarini egallab oladilar va o’z hokimiyatini o’rnatadilar.

1578 yilda Abdullaxon II va Bobo Sulton o’rtasida bo’lib o’tgan jang Jizzax vohasi uchun og’ir kechdi. Chunki, muhoraba ayni hosil yig’im – terim vaqtiga to’g’ri kelgandi. Boz ustiga aholi ulovlarining harbiy xizmatga jalb qilinishi, qo’shinni boqish uchun qo’shimcha oziq – ovqat yig’ilishi raiyatning ahvolini battar og’irlashtirgan. Ayni paytda aholi molining talanishi ham ulardagi chorva sonining keskin kamayib ketishiga olib kelgan.

Abdullaxon II 1575–1587 yillarda Tuyatortar kanalining bosh qismini qaytadan, o’rta va quyi qismini yangitdan qazitib, Zarafshon daryosi suvining uzunligi 83 km bo’lgan Tuyatortar kanali orqali Jizzax vohasiga keltirishga bosh – qosh bo’ladi. Tuyatortarning ishga tushirilishi, Jizzax vohasi tumanlarida bir necha ming gektar yerlarda sug’orma dehqonchilik, bog’dorchilik, poliz–sabzavot ekinlari ekish imkonini beradi. Dehqonchilik maydonlarining kengayishi vohaning dasht va tog’ oldi hududlarida ixtisoslashgan chorvachilik xo’jaligini yanada taraqqiy etishiga sabab bo’lgan.

Rossiya imperiyasi bosqinidan to sovet hokimiyatigacha bo’lgan davrda Jizzax vohasi aholisining chorvachilik xo’jaligini tarixiy – etnologik jihatdan o’rganishga bag’ishlangan maxsus adabiyotlarga boy emas, mavjudlari ham ma’lumot va hisobotlar shaklida yozilgan. Ular Rossiya imperiyasi O’rta Osiyoni bosib olganidan keyingi davrda, o’lkani o’rganish munosabati bilan yig’ilgan adabiyotlar, hisobotlar va statistik to’plamlarni o’z ichiga olgan ma’lumotlardir.

XX asr boshlarida Jizzax vohasida yaylovlardan foydalanish masalasiga bag’ishlangan M.M. Virskiyning tadqiqotlari o’rganilayotgan muammo yuzasidan qimmatli ma’lumotlar beradi. Uning qaydnomalarida vohaning Yangi Qo’rg’on (hozirgi G’allaorol tumani) volostidagi yaylov dalalari, ularning hududlari, bu joylardan foydalanish, yaylov tabiiy chegaralarining belgilanishi va ulardan lalmi dehqonchilik uchun foydalanish kabi muhim etnografik materiallar o’rin olgan

A.Bababekovning “XX asrda O’zbekiston tog’li tumanlarida etnoiqtisodiy jarayonlar” (Sangzor − Zomin mintaqasi misolida) tadqiqot ishida Jizzax vohasining tog’li xududlari yarim ko’chmanchi chorvachilik xo’jaligi bilan bir qatorda dehqonchilik, bog’dorchilik hamda uy hunarmandchiligi bilan ham shug’ulanishi xaqida ma’lumot beradi. Tadqiqotchi o’rgangan hudud chorvador aholisining bisotidagi “chorva mollari soni” ularning jamiyatdagi mavqeini ham belgilab berishini keltirib o’tadi.

Sangzor vohasida joylashgan G’allaorol tumani o’rta asrlarda Amir Temur askarlarini uchqur Qorabayir otlari bilan muntazam ta’minlab turganligi, shuningdek, hudud qishloqlarining hunarmandlari Sohibqiron askarlari uchun zarli egar-jabduqlar tayyorlab yetkazib beruvchi joy bo’lganligi xaqidagi ma’lumotlar H.Haydarov va mualliflar jamosining G’allaorol tumanining 70 yilligiga bag’ishlab yozilgan “G’allaorolnoma” kitobida keltirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak Sangzor vohasida chorvachilik bilan bog’liq an’analar, urf-odatlar va madaniy meros o’zbek xalqi ma’naviy boyligining muhim qismi bo’lib, bugungi kungacha yetib kelgan yozma manbalar hamda xalq og’zaki ijodiyoti namunalari o’zbek xalqi tafakkurining buyuk yutug’idir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bartold V. V. Sogd. − Sochinenie \\ T − III. − Moskva, 1965.

2.Shoniyozov K. Sh. O’zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: “Sharq”, 2001.

3.Gerodot. Istoriya v devyati knigax. Kniga chetvertaya. – M.; 1985.

4.Bobur Zahiriddin Muhammad. − Boburnoma. T.: “Yulduzcha”, 1989.

5. Pardaev A. Jizzax bekligi − Markaziy Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan − XIX asrning 60 − yillarigacha). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. – Toshkent, 2004.

6.Mirsoatov T.Z. O’zbek tilining qirq shevasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. – Toshkent, 1953.

7.Mir Muxammad Amini Buxoriy. Ubaydullaname. – T.: 1957

8.Bababekov A. XX asr Sangzor − Zomin mintaqasi aholisining chorvachiligi: an’ana va Novatsiyalar. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. − Toshkent, 2019.

9 Haydarov H, M.Pardaev, A.Sariboev, I.Suvonqulov. “G’allaorolnoma” (G’allaorol tumanining 70 yilligiga bag’ishlanadi). – Toshkent, “Qomuslar”, 1996.